

KONTREYLER TERMINALLARI ORQALI YUK TASHISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYASINI TASHKIL ETISH

Boboyev Diyor Shomurotovich

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O'zbekiston)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6298296>

Annotasiya: Maqolada yuklarni tashishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda kontreyler transportidan foydalanish orqali mavjud tashish tizimini rivojlantirish keltirilgan. Hozirgi kundagi mamlakatimiz orqali tashiladigan tranzit yuklar, eksport va import yuklari tahlil qilib chiqilgan. Bundan tashqari, kontreyler tashish texnologiyasini mukammal tashkil qilish va takomillashtirish uchun hozirda mavjud texnologiya turlarining bir-biridan farqlari ko'rsatib berilgan. Texnologiyalarning asosiy parametrlar o'rganib chiqilib, kontreyler transporti texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Yuk aylanmasi, intermodal tashish, kontreyler tashish, import yuklar, texnologik parametr, tashish jarayoni, eksport yuklar, tranzit yular, transport turlari hamkorligi, zamonaviy tashish tizimi.

KIRISH

Temir yo'l transportidan, shu jumladan, tranzit yuklar orqali kelayotgan foyda mamlakat iqtisodiyotining yirik ulushini tashkil qiladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda va xalqaro aloqalarda mustahkam o'rin egallashda yurtimiz hududidan temir yo'l transporti orqali o'tadigan tranzit yuklar hajmining ortishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bir qator tajribali mamlakatlar natijalarining tahlili asosida, tashish tizimini rivojlantirishning ishlab chiqilgan namunaviy tizimli yechimlarini va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash hamda yangi tarif siyosatini joriy etish orqali transportdan foydalanuvchilarni temir yo'l transportiga yanada ko'proq jalb etish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi kunda bir qancha mamlakatlarda yuk avtomobillari harakatining cheklanishi oqibatida yuklarning manziliga yetib borish vaqti ortib ketish holatlari kuzatilmoqda. Shanba, yakshanba, bayram kunlari yuk avtomobillari harakatining ma'lum vaqt oralig'ida yoki butunlay taqiqlanishi hamda yuk avtomobillari uchun marshrutlarda yuk og'irligining chegaralanishi yuk tashish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yuk tashish tizimida zamonaviy transport turlarini qo'llashga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

TAHLIL


Yangi texnologiyalarni qo'llashdan oldin yuk oqimlarining o'zgarishiga e'tibor qaratib, statistik tahlilni amalga oshirish lozim. Yuk oqimining ortish yoki kamayishidan foydalangan holda, har bir yo'nalish bo'yicha tashkiliy va texnologik ishlar rejalashtiriladi. Buning uchun eksport, import va tranzit yuklarning statistik ko'rsatkichlarining har birini alohida o'rganib chiqib, qaysi yuklar eng ko'p tashilishini hamda qaysi davlatlar bilan hamkorlikda ishlashimiz kerakligini aniqlab olishimiz kerak.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ da 2019, 2020, 2021 yillar davomidagi bir oylik (01.11dan 28.11. gacha) yuk oqimlarining tahlili amalga oshirildi.

Statistik ma'lumotlar asosida import yuklar (yuk turlari), import yuklar (jo'natuvchi davlatlar), eksport yuklar (yuk turlari), eksport yuklar (qabul qiluvchi davlatlar), tranzit yuklarni qabul qilish (yuk turlari), tranzit yuklarni qabul qilish (jo'natuvchi davlatlar), tranzit


yuklarni qabul qilish (qabul qiluvchi davlatlar), tranzit yuklarni topshirish (yuk turlari), tranzit yuklarni topshirish (jo'natuvchi davlatlar), tranzit yuklarni topshirish (qabul qiluvchi davlatlar) kabi bir qator kategoriyalar bo'yicha tahlillar amalga oshirildi.

Bunda import yuklar uchun yuk tashishlar tahlili ko'rib chiqilganida asosiy yuk turlarini don mahsulotlari, neft mahsulotlari, qora va rangli metal, yog'och mahsulotlari, ko'mir, meva-sabzavot, sement, koks va ruda, un mahsulotlari, shakar, kimyoviy o'g'it, qurilish materiallari, sanoat mahsulotlari, qurilma va mashinalar hamda boshqa yuklar tashkil etdi.




1-rasm. Import yuklar (yuk turlari)

Import yuklarni jo'natuvchi asosiy davlatlar esa Qozog'iston, Rossiya, Turkmaniston, Qirg'iziston, Eron, Tojikiston, Ukraina, Gruziya, Xitoy, Belorussiya, Litva, Latviya, Ozarbayjon, Moldova, Estoniya va boshqa davlatlar hisoblanadi. Yuk oqimlari ko'p miqdorni tashkil qiladigan hamda yuk tashish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar kuzatilayotgan davlatlar bilan o'zaro aloqalarimizning mustahkamlanishi va iqtisodiyotimizning yanada rivojlanishi uchun tegishli hududlarni tahlil qilib, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish lozim.




2-rasm. Import yuklar (jo'natuvchi davlatlar)

Mamlakatimizdan boshqa davlatlarga eksport qilinuvchi asosiy yuklarni kimyoviy o'g'it, qurilish materiallari, un mahsulotlari, neft mahsulotlari, meva-sabzavot, sanoat mahsulotlari, paxta tolasi, qora metal va lom, don mahsulotlari, Yog'och mahsulotlari, sement, koks va ruda, rangli metal, ko'mir, qurilma va mashinalar hamda shu kabi boshqa yuklar tashkil qiladi.




3-rasm. Eksport yuklar (yuk turlari)

Respublikamiz hududidan eksport qilinadigan yuklarni qabul qiluvchi asosiy davlatlar G'alaba eksp., Tojikiston, Ukraina, Litva, Latviya, Gruziya, Ozarbayjon va shu kabi bir nechta boshqa davlatlar tashkil qiladi.




4-rasm. Eksport yuklar (qabul qiluvchi davlatlar)

Mamlakatimiz temir yo'llari orqali don mahsulotlari, neft mahsulotlari, un mahsulotlari, yog'och mahsulotlari, meva-sabzavot va iste'mol mollari, koks va ruda, qora metal va lom, paxta tolasi va xomashyolari, qurilish materiallari, kimyoviy o'g'it, sanoat mahsulotlari, rangli metal, qurilma va mashinalar, shakar, ko'mir, sement, glinozem va shu kabi boshqa yuk turlari bo'yicha tranzit yuklarni qabul qilish amalga oshiriladi.




5-rasm. Tranzit yuklarni qabul qilish (yuk turlari)

Respublikamiz hududiga Rossiya, Eron, Gruzziya, Belarussiya, Ukraina, Ozarbayjon va boshqa jo'natuvchi davlatlar orqali tranzit yuklarni qabul qilinadi.




6-rasm. Tranzit yuklarni qabul qilish (jo'natuvchi davlatlar)

Tranzit yuklarni qabul qiluvchi asosiy davlatlar G'alaba eksp., Qozog'iston, Turkmaniston, Moldova, Belarussiya va boshqa davlatlar sanaladi.




7-rasm. Tranzit yuklarni qabul qilish (qabul qiluvchi davlatlar)

Don mahsulotlari, neft mahsulotlari, un mahsulotlari, yog'och mahsulotlari, meva-sabzavot, koks va ruda, qora metal va lom, qurilish materiallari, kimyoviy o'g'it, sanoat mahsulotlari, paxta tolasi, rangli metal, qurilma va mashinalar, shakar, ko'mir, sement, glinozem va boshqa yuk turlari bo'yicha tranzit yuklar topshiriladi.




8-rasm. Tranzit yuklarni topshirish (yuk turlari)

Mamlakatimiz hududidan o'tuvchi tranzit yuklarni jo'natuvchi Rossiya, Eron, Xitoy, Turkmaniston, Ukraina, Latviya va boshqa davlatlar tranzit yuklarni topshiradi.



9-rasm. Tranzit yuklarni topshirish (jo'natuvchi davlatlar)

Tojikiston, G'alaba eksp., Qirg'iziston, Qozog'iston, Eron, Turkmaniston, Xitoy, Moldova, Rossiya, Belarussiya, Latviya, Ozarbayjon va boshqa bir nechta davlatlar tranzit yuklarni qabul qiluvchi davlatlar hisoblanadi.



10-rasm. Tranzit yuklarni topshirish (qabul qiluvchi davlatlar)

ASOSIY QISM

Yuk aylanmasi va import, eksport hamda tranzit yuklar salmog'i bo'yicha statistik tahlillarni amalga oshirish orqali doimiy aloqalarda bo'ladigan mamlakatlarimiz bilan hamkorliklarimizning mustahkamlanishi hamda temir yo'l transporti orqali keladigan foydaning ortishi uchun zamonaviy transport texnologiyalarini qo'llash lozim. Bunday texnologiyalardan eng samaralilaridan biri kontreyler transport tizimi hisoblanadi.

Muntazam harakatlanadigan kontreyler transportini tashkil etish mahalliy hamda tranzit yo'nalishlarda istiqbolli yo'laklarni yaratish imkoniyatini beradi. Buning uchun bir qator tahliliy va tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish zarur. Xususan, statistik ma'lumotlar asosida kelgusida rivojlanishi kutilayotgan tranzit yo'laklarni aniqlash va tanlangan hududlar bo'yicha kontreyler terminallarini shakllantirish vazifalari qo'yiladi. Bu orqali transportning xizmat ko'rsatish faoliyatini rivojlantirish, logistika tamoyillari asosida tashish jarayonini optimallashtirish, transport infratuzilmasining samaradorligini oshirish, transport turlari raqobatida temir yo'l transportining imkoniyatlarini kengaytirish, yuk oqimlarini temir yo'l transportiga jalb qilish, terminal komplekslarini modernizatsiya qilingan zamonaviy ko'rinishlarini yaratish kabi maqsadlarni amalga oshirish mumkin.

Kontreyler tashish tizimini tashkil etish bo'yicha xorij davlatlarida CargoBeamer (Germaniya), MegaSwing (Shvetsiya), "RoLa" (Rollende Landstrasse), Modalohr (Fransiya), Lo-Lo (Lift-on-Lift-off), Resorail, CargoRoo, CargoSpeed, Flexiwaggon kabi texnologiya turlari mavjud. Ushbu texnologiyalar terminal majmuasining jihozlanishi, maxsus platformadan foydalanish, transport vositasining tuzilishi, gabarit talablari va texnologik parametrlari bilan bir-biridan farqlanadi.

CargoBeamer



MegaSwing




Rollende Landstrasse



Modalohr



Resorail



Flexiwaggon



Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari kontreyler transport tizimidan foydalanib kelmoqda. Ayniqsa rivojlangan davlatlar, xususan, yevropaning deyarli barcha mamlakatlari yuklarni tashishda kontreyler texnologiyasini qo'llab keladi. Kontreyler transport texnologiyasining bir nechta turlari mavjud. Har bir tur terminal tuzilishi, maxsus platformadan yoki ortib-tushirish mashinalaridan foydalanish, va boshqa shu kabi texnologik parametrlari bilan bir-biridan farqlanadi.

XULOSA

Kontreyler transportini keng ko'lamli joriy qilishdan oldin hozirgi kunda xorij mamlakatlarida mavjud bo'lgan texnologiyalarning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilib, eng samarali texnologiyani tanlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashish jarayonida kontreyler transportidan foydalanish tashish sifatining ortishiga va yuk tashishning yanada rivojlanishiga imkon yaratadi. Ushbu tashish texnologiyasini mukammal tashkil qilish hamda takomillashtirish orqali hozirgi kunda temir yo'l va avtomobil transportida mavjud bo'lgan bir qator muammolarni hal etishga erishiladi. Bundan tashqari, kontreyler transportidan samarali foydalanish natijasida mamlakat iqtisodiyotiga yuk tashish orqali kelayotgan foydani yanada orttirish imkoniyatiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboev D.Sh., Bozorov R.Sh., Shermatov E.S. Choose types of transport and improve their cooperation in the process of delivery of cargo/ *Ekonomika i sotsium*. №5 (84) 2021. [2]
2. Shihnazarov J.A., Boboev D.Sh., Shermatov E.S. "Investigation of the longitudinal forces acting during the transportation of flat cargo on sites in the road profiles, where there is a slope of railway transport". *ICPPMS-2021*.
3. J.A.Shixnazarov, D.Sh.Boboyev. Temir yo'l transportida yuklarni yetkazib berish jarayonidagi vagonlardan samarali foydalanishni tahlil qilish, *Academic research in educational sciences volume 2 | issue-5 | 2021*
4. Z.G Mukhamedova. Analysis and assessment of power efficiency of special self - propelled railway rolling stock. // *Bulletin of the Turin Polytechnic University in the city of Tashkent*. - Tashkent, №3 / 2019. pp. 104-109.
5. Kontseptsiya organizatsii kontraleylernyx perevozok na «prostrastve 1520», Moskva, 2011. [3]